

KURASH BÒYICHA TEXNIK USULLARNI TASNIFLASH TIZIMLASHTIRISH VA ULARNING ATAMALARI

Xomudjonova Feruza Komiljon qizi

Jismoniy madaniyat kafedra mudiri dotsent

Eshnorova Setora Elmurod qizi

Shahrisabz Davlat Instituti talabasi

Annotatsiya: Kurashdagi texnik usullarning tasniflanishi , tizimlashtirilishi haqida umumiy ma'lumot va unda uchraydigan atamalarning paydo bòlishi va izohlarining tasnifini ochib beriladi.

Kalit sòzlar: Texnik usullar , kurashdagi nazariy bilimlar , tasniflash va tizimlashtirish qoidalari , atamalar va ularning izohlari.

Kurashchining texnik harakatlarini tartibga solish va ushbu sohada mutaxassislar o'rtasida muloqat qilish imkonini yaratish uchun kurash texnikasining tasnifi, tizimi hamda atamaları ishlab chiqilgan. Har xil kurash usullarini ularning umumiy belgilariga qarab (tasniflarga) taqsimlash mutaxassislariga fan to'g'risidagi nazariy hamda amaliy bilimlarni rivojlantirishga imkon yaratadi va bir vaqtning o'zida bu bilimlardagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

Kurash usullari o'rtasidagi ichki bog'liqliklar tizimlashtirish asosida ko'rib chiqiladi. Tizimlashtirish - bu kurash texnikasini bir tizimga solish, ma'lum bir tartibda joylashtirish, ma'lum bir ketma-ketlikni belgilash demakdir.

Tizimlashtirishda, tasniflashdan farqli ravishda (chunki uning davomida ko'rib chiqilayotgan ob'ektlar ularning o'xshashligi va o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda u yoki bu bo'linmaga ta'lluqli bo'ladi) ob'ektlar ularning ketma-ketligini aniqlash, belgilash uchun bir-biri bilan taqkoslanadi. Tizimlashtirish ushbu tasnifiy sxema imkoniyatlarini ochib beradi, uning kamchiliklarini ko'rsatadi.

Sport kurashini tasniflash va tizimlashtirishning vazifasi kurash mohiyatini aks ettirish hisoblanadi. Tasniflash va tizimlashtirishni tushunchalarni (tashlash, o'tkazish, yiqitish, ag'darish va h.k.) aniqlash bo'yicha oldindan ish bajarilmasdan turib, amalga oshirilmaydi.

Yaxshi tuzilgan tasniflash ilmiy asoslangan atamalarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Kurash atamashunosligi - bu mutaxassislar o'zlarining ilmiy va pedagogik ish faoliyatlarida foydalanadigan atamalar yig'indisidir.

Mazkur ko'pgina fanlarni tasniflash va tizimlashtirish asosida tuzilgan atamashunoslik fan mohiyati to'grisida ma'lumotlar beradi hamda maqsadli ravishda

takomillashtirish imkoniyati mumkin. Bunday atamashunoslik ilmiy asoslangan atamashunoslik deb ataladi.

Shunday qilib, tasniflash, tizimlashtirish va atamashunoslik to'g'risida fikr yuritilgan paytda, ularning mana shu tartibda sanab o'tilishiga e'tibor berib, undagi tasniflash bo'yicha ish ketma-ketligini ko'rish mumkin.

Har bir sport turini biz o'zining texnik usullari, uni tasniflash va tizimlashtirishdan iborat b'ladadi. Shuningdek, albatta, kurash sport turining ham texnik usullari, tasniflash va tizimlashtirish, ularning atamalaridan iboratdir. Kurashda ikki raqib bir-biriga ma'lum bir qonun-qoidalarga amal qilgan holda g'oliblikni qolga kiritish maqsadida kurashishadi. Kurashchilar albatta, kurashishdan oldin puxta tayyorgarlikka ega b'lishi, qonun-qoidalar bilan tanishishi zarur, o'z murabbiylari bilan birga soatlab trenirovkalarda qatnashishi darkordir. Kurash sport turini tasniflash - bu nazariy bilimlarga asoslangan b'lib, tasniflash kurashchilar uchun kurash haqida yana ham ko'proq nazariy bilmga ega b'lishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Sportchilar uchun amaliy darslar qanchalik muhim rol o'ynasa nazariy darslar ham xuddi shunday ahamiyat kasb etadi. Har xil kurash turlaridagi umumiy belgilariga ko'ra ularni tasniflanadi. Misol uchun, Yevropaliklar kurashi bilan O'rta Osiyo ya'ni milliy kurashimizdagi o'xshashliklari keltirib o'tiladi. Ikkala kurash turida ham sportchilar bilan bog'liq qoidalar bir xilligi kurashishdan oldin ularning tana vaznlari, yosh jihatida aniqliklar kiritiladi. Shuningdek, kurashchilarning kurashish mobaynida deyarli bir xil qonun-qoidalarga amal qilishlarini ham aynan tasniflashga misol qilib olishimiz mumkin. Endi esa tizimlashtirish haqida gaplashsak, tizimlashtirish -bu kurash texniklarini ma'lum bir tartibga solish, ma'lum bir ketma-ketlikka solishdir. Tizimlashtirishning tasniflashdan farqi, tizimlashtirishda ob'ektlar u yoki bu o'xshashlikka ega b'lib, ularni bir sinfga kiritish mumkin. Tizimlashtirish tasnifiy sxema imkoniyatlarini ochib beradi va uning kamchiliklarini ochiq oydin ochib beradi. Aslida, kurashdagi tasniflash va tizimlashtirishning asosiy vazifasi bu kurash mohiyatini aks ettirish hisoblanadi. Agarda mutaxassislar tomonidan tasniflash yaxshi tuzilgan va zaruriy ma'lumotlar bilan boyitilgan b'lsa kurashda uchraydigan atamalarni yaratish uchun asos b'ladadi.

Kurash atamashunosligi aslida nima va qanday turdagi so'zlarni ya'ni atamalarni o'z chiga oladi. Kurashdagi atamashunoslik -bu mutaxassislar va pedagoglar ish mobaynida foydalaniladigan ma'lum so'zlar, ya'ni atamalar hisoblanadi. Ko'pgina tasniflash va tizimlashtirishlar orqali atamashunoslik paydo b'ladadi. Bunday atamashunoslik, albatta, ilmiy atamashunoslik hisoblanadi. Bundan tushunishimiz mumkinki, tasniflash, tizimlashtirish va atamashunoslik ketma-ketlikda joylashishida albatta mazmun mavjud. Masalan, tasniflashda mobaynida ma'lum bir tizim paydo b'ladadi va bundan keyin o'sha tizimdagi ma'lumotlar b'oyicha atamashunoslik paydo b'ladadi. Endi kurashdagi ma'lum bir atamalarga izoh berib o'tsak

- kurashda ikki raqib sportchi kurashishadi va òz raqibi ustidan g'alabaga erishadi. Ularning hujumlari , usullari kombaniyatsiyalari inobatga olinadi.
- har bir kurashchining asosiy faoliyat turidan biri bu - albatta tanlangan usulni saqlab turishdir.
- hujum qilayotgan kurashchining òz raqibini gilamdagi holatini òzgartirish va g'oliblikni qòlga kiritishdir va boshqalar.

Xulosa òrinda aytishimiz mumkinki , bugungi mavzu ya'ni kurash sport turidagi tasniflash , tizimlashtirish va undagi atamashunoslik orqali kurashchilar nazariy bilimlarga ega bòlishi va ular kurashdagi tasniflash , tizimlashtirish va atamashunoslik nima ekanligi , ularning kurashchilarga qanday aloqasi borligi haqida ma'lumotga ega bòlishlari mumkin. Yuqorida tanishib chiqqanimizdek tasniflash va tizimlashtirish bular bir-biriga aloqador bòlib tasniflash orqali tizimlashtirishga oid sxema paydo bòlib , uni atamashunoslikda yanada yoritilib , ularga alohida izohlar berilib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T. S. Usmonxòjayev , Ò. Tursunov Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Ma'ruzalar matni - Toshkent , 2002
2. " Trenerlik metodikasi" fanidan namunali òquv dasturi , - Toshkent , 2011
3. K. M. Mahkamjonov , X. B. Tulenova. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. "Òqituvchi" , 2004